

MAQOL VA MATAL BIRLIKLARINING QISQACHA TALQINI

Xamzayev Otaxon Erkinovich

Termez davlat universiteti

Annотatsiya. Ushbu maqolada tilshunos olimlar tomonidan berilgan ta'riflar nazariy tahlil qilingan va paremiologik birlik bo'lgan maqol va matal birliklarini farqli va o'xshash tomonlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: paremiologik birlik, maqol, matal, parema.

Annotation. In this article, the definitions given by linguists are theoretically analyzed and the differences and similarities of proverb and matal units, which are paremiological units, are studied.

Keywords: paremiological unit, proverb, matal, parema

Paremiologiya sohasida juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan bo'lishiga qaramay olimlar va tadqiqotchilar o'rtasida maqol va matal tushunchasiga nisbatan berilgan ta'riflar munozarali bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada maqol va matal tipidagi paremalar ta'riflariga murojaat etib, bu ikki parema turini chegaralashga harakat qilamiz.

O'zbek olimi S.N.Tursunov o'zining "Xalq hikmatlarining barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati" nomli kitobida hikmat tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: Hikmat so'zining lug'aviy ma'nosi – o'ta donolik, aql-zakovat bilan oqilona aytilgan, "mixlab qo'yilgan", o'zgartirib bo'lmaydigan chuqur ma'noli gap, demakdir. Xalq ijodiyotining o'ziga xos bo'lgan bu janri og'zaki nutqda ham, yozma adabiyotda ham turli xil atamalar bilan nomlanadi: maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so'z, ibora, ta'bir, aforizm, otalar so'zi, ota-bobolardan qolgan so'z va boshqalar¹. Ilmiy adabiyotlarda paremaning ushbu turini frazeologiya tarkibida o'rganish taklif etilgan va

¹ Турсунов С.Н. ва бошқ. Халқ ҳикматларининг баркамол авлод тарбиясидаги аҳамияти. – Тошкент: "Янги нашр" нашриёти, 2014. – Б.7.

shu navbatida bunga qarshi fikrlar ham mavjud. Jumladan, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin² kabi olimlar maqol va matallarni frazeologik birliklar tarkibiga kiritgan bo'lsalar, N.I.Amosova³, A.M.Babkin⁴lar esa maqol va matallarni frazeologik birliklar tarkibiga kiritishni inkor qiladilar. A.V.Kunin "Frazeologiya sovremennogo angliyskogo yazika" kitobida "Maqollar folklor tarkibida ham frazeologizm tarkibida ham tadqiq etilishi lozim. Faqat turli xil nuqtai nazardan chunki maqol ko'chma ma'nodagina frazeologizm bo'la oladi" deydi⁵. Bizning tadqiqotimiz frazeologizmlarni tadqiq etishga qaratilmaganligi sababli iboralar haqida keltirilgan ushbu fikrlar bilan cheklanib maqol va matallarni o'zaro chegaralashga harakat qilamiz. B.M.Jo'rayeva "O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari" nomli dissertatsiya ishida shunday deydi: "Tilshunoslikda maqol va matalni ma'no tomonidan chegaralash maqsadga muvofiqdir, chunki ular berilayotgan xabarni ifodalash xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Matal nutqda axborot berish, maqol esa shu axborotni jonli timsollarda yetkazish, uni dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo'llanadi. Masalan, matal: Kutganga kun uzoq. Maqol: Tikilgan qozon qaynamas. Ochga tortgan kechga tortgan⁶.

K.Imomov va boshqa mualliflarning "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" nomli kitobida maqol va matalni quyidagicha ta'riflaydi: Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega bo'lsa, matallar faqat ko'chma ma'noda qo'llanadilar. Masalan, *Dehqon bo'lsang kuz hayda; kuz haydamasang, yuz hayda maqoli faqat o'z ma'nosida qo'llanilsa, Quruq qoshiq og'iz yirtar maqoli esa ko'chma ma'noda ishlatiladi. Burnini yerga ishqamoq matali esa hamma vaqt faqat ko'chma ma'noda qo'llanadi*⁷.

² Виноградов В.В., Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М.: Издательский центр «Феникс», 1972. – 206 б.

³ Амосова Н.И. Основы английской фразеологии. – Ленинград. Издательство ленинградского университета, 1963. – 227 с.

⁴ Бабкин А. М. Русская фразеология, её развитие и источники. – Ленинград. Наука, 1970. – 264 с.

⁵ Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – Москва.: Международные отношения, 1972. – С.206.

⁶ Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. доктори дисс. автореферати. – Самарқанд, 2019. – Б.16.

⁷ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.92.

Ingliz tilida *maqol* “*proverb*”, *matal* “*saying*”lar bir-biriga yaqin terminlar hisoblanadi. Ingliz va dunyo olimlarining bu boradagi qarashlarini ko‘rib chiqamiz. “Macmillan Dictionary and Thesaurus: Free English Dictionary Online” lug‘atda berilgan ta’rifga ko‘ra: “*Proverb – a short well-known statement that gives practical advice about life*⁸ (Maqol – hayot haqida amaliy maslahatga ega qisqa va yaxshi ma’lum bo‘lgan fikrdir). *Saying – a well-known statement about what often happens in life* [Ibidem] (Matal – hayotda ko‘pincha yuz beradigan hammaga yaxshi ma’lum bo‘lgan fikr).

“The Oxford Dictionary of Proverbs” lug‘atida keltirilgan ta’rifda esa *A proverb is a traditional saying which offers advice or presents a moral in a short and pithy manner*⁹ tarzida bayon berilgan. (Maqol - bu qisqa va sodda tarzda maslahat beradigan an’anaviy gap).

V.I.Dal esa o‘zining mashhur “Пословицы русского народа” to‘plamining kirish qismida shunday yozgan edi: “Matal, xalqning ta’rificha, g‘uncha maqol esa meva; bu ta’rif juda ham to‘g‘ri”.Uning fikricha, maqol to‘liq, tugal mazmun, hukm anglatuvchi gap bo‘lsa, matal ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora; u maqolning yarmidir¹⁰.

Yuqorida keltirilgan ta’rif va tahlillardan ko‘rinib turibdiki, olib borilgan ilmiy kuzatishlar maqol va matal o‘rtasida katta farq borligini, ularni bir biridan ajratish kerakligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, maqollarda tugal hukm va aniq hulosasi mavjud bo‘lsa, matallar esa maqollar kabi tugal hukmni ifodalamaydi. Bu esa maqollarning xalq paremik ijodida o‘ziga xos va alohida tadqiq qilinishi lozim ekanligini ifoda etadi.

⁸ Macmillan Dictionary and Thesaurus: Free English Dictionary Online.(<https://www.macmillandictionary.com>).

⁹ The Oxford Dictionary of Proverbs and Jennifer Speake, John Simpson Fifth Edition, Oxford University Press, 2007. – P. 625.

¹⁰ Даль В.И. Пословицы русского народа. М.: Художественная литература,1957. – С. 3-5.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Macmillan Dictionary and Thesaurus: Free English Dictionary Online.(<https://www.macmillandictionary.com>).
2. The Oxford Dictionary of Proverbs and Jennifer Speake, John Simpson Fifth Edition, Oxford University Press, 2007. – P. 625.
3. Амосова Н.И. Основы английской фразеология. – *Ленинград*. Издательство ленинградского университета, 1963. – 227 с.
4. Бабкин А. М. Русская фразеология, её развитие и источники. – *Ленинград*. Наука, 1970. – 264 с.
5. Виноградов В.В., Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М.: Издательский центр «Феникс», 1972. – 206 б.
6. Даль В.И. Пословицы русского народа. М.: Художественная литература, 1957. – С. 3-5.
7. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. доктори дисс. автореферати. – Самарқанд, 2019. – Б.16.
8. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.92.
9. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – Москва.: Международные отношения, 1972. – С.206.
10. Турсунов С.Н. ва бошқ. Халқ ҳикматларининг баркамол авлод тарбиясидаги аҳамияти. – Тошкент: “Янги нашр” нашриёти, 2014. – Б.7.